

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjaeva
29-avgust 2025-yil

**AN’ANAVIY XONANDALIK
FANINING
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110600 – Musiqa ta’limi

Fan/modul kodi AnX1106		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	An'anaviy xonandalik		60	120	180
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad– talabalarining xalq qo'shiqchiligiga xos o'quv malakalarini shakllantirish, ularga xalq qo'shiqlarini jamoa bo'lib va yakka holda kuylay olish va maqom guruhlarini tashkil qila olish psixologiyasi bo'yicha mukammal bilim berish va jamoaga rahbarlik qila olish xususiyatlarini singdirishdan iborat. Kursni maqsadidan kelib chiqqan holda, guruhli darslarda bir qator vazifalar amalga oshiriladi. Fanning asosiy vazifalari: An'anaviy xonandalik" fani bo'yicha beriladigan bilimlar tizimini o'zida ifoda etadi. Shu o'quv dasturi xalq qo'shiqchiligi bilan birga an'anaviy ijrochilik - dostonchilik san'ati durdonalaridan namunalar o'rganadilar. Dasturda "An'anaviy xonandalik" fani bo'yicha xar bir kurs talabalari oldida qo'yiladigan vazifalar, ular egallashi mumkin bo'lgan bilimlar: nola, qochirim va boshqa malakaviy ijrolar bo'yicha uslubiy yo'llanmalar ko'rsatilgan hamda, o'rganiladigan asarlarning taxminiy ro'yxati berilgan. Dasturga kiritilgan asarlar talabalarning ijro, ovoz imkoniyatlariga, kuylash malakalariga moslab tanlangan. Dasturdagi laparlar, yallalarga xos o'zbekona nola va bezaklarni amalda qo'llay olish xaqida nazariy va amaliy bilimlar berilgan. Mazkur fanning asosiy maqsadi – Mustaqil va ijodiy, tanqidiy-tahliliy fikr yuritish, turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ulardan chiqishning muqobil variantini tanlay oladi; An'anaviy xonandalikda guruh va yakka holda kuylashning tabiati, didaktik tamoyillari va boshqa qonuniyatlarni bilib olish; Xalq qo'shiqchiligi va maqom repertuarlari bilan bevosita tanishish va ularni tanlash bo'yicha yuksak badiiy didga ega bo'lish; Fanning asosiy manbalari: Chet el musiqa madaniyatining ilg'or an'analaridan foydalana oladi; Jamoada kuylash va bilan ishlash jarayonida inson organizmida yuz beradigan ruhiy-fiziologik o'zgarishlarni xis qilish va unga ko'nikma hosil qilish; Maqom qo'shiqchisiga va maqomchilar dastasi rahbarligiga qo'yiladigan talabalarni bilish va unga o'rgana borish; An'anaviy ijrochilikda xalq qushiqlari 4 turi haqida tushuncha berish.				

Mehnat qo`shiq-lari, mavsum marosim va urf-odat qo`shiq-lari, lirik qo`shiq-lari, termalar ijro etish ko`nikmalarini egallay olish malakalariga ega bo`ladi

II. Amaliy mashg`ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg`ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Ey sarviravon". S.Kalonov musiqasi, Nodira g'azali asar haqida ma'lumot ijro yo'llari
2. "Otmagay tong. T.Jalilov musiqasi asarni ohangi ustida ishlash
3. "Sallamno". N.Hasanov musiqasi. Vasfiy g'azali
4. "Ey nozanin". J.Sultonov musiqasi.Muqimiy g'azali
5. "So'lim". S.G' Soatiy ijro I.Ikromov musiqasi
6. "Bo'l menga mahbub" .S.Zunnunova g'azali, F. Sodiqov musiqasi
7. "Qalandar- I". Muqimiy g'azali,xalq musiqasi
8. **Ovozning Global istiqbollari**
https://www.google.co.uz/books/edition/Vocal_Music_and_Contemporary_Identities/GblVHStg54oC?hl=ru&gbpv=1&dq=Traditional+vocals&pg=PA144&printsec=frontcover
9. **Boshqaning ovozi tasavvur qilish: vokal an'analari bo'yicha bastakorlik haqida**
https://www.google.co.uz/books/edition/Vocal_Music_and_Contemporary_Identities/GblVHStg54oC?hl=ru&gbpv=1&dq=Traditional+vocals&pg=PA144&printsec=frontcover
10. "Soqinomai savti kalon"
11. "Qo'shchinor. A.Navoiy g'azali. Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi
12. "Yoronlar" Mashrab g'azali K.Baratov musiqasi
13. "Etmasmidim" Fuzuliy g'azali
14. "Yakka bu farg'onada" M.Mirzayev musiqasi Muqimiy g'azali
15. "Dutorim" S.Kalonov musiqasi
16. "Kuygay" Hamid Olimjon g'azali Yunus Rajabiy musiqasi
17. "Xox inon" Orufxon Xotamov musiqasi Lutfiy g'azali.

Har bir asarni o'rganish jarayonida dastlab matn mazmuni organiladi, ohangni o'rganish vazifalarini amalga oshirishda kasbiy tizimlilikga alohida ahamiyat qaratiladi, Har bir milliy xalq musiqa ijodiga mansub asarni nolalar, ohanglar, temp, dinamika, improvizatsiya, ovoz jarandorligi, talaffuz kabi asosiy belgilariga ahamiyat qaratilishi lozimdir.

IV.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabalarni mustaqil ta'limdan bilim olish maqsadlari; adabiyotlarni, o'quv dasturlari doirasidagi materiallarni, o'zlashtirishlari bo'yicha mustaqil qaror qabul qilishlari nazarda tutiladi. O'qituvchilar talabalarni ta'lim olishidagi individual strategiyalarni shakllantirish bo'yicha talabalarning intilishlarini olqishlash va to'g'ri yunaltira olishlar lozim. Mustaqil ta'lim sharoitida talaba ishni samaraliroq va qulayroq tashkil etish: talaba yakka holda yoki bir necha kishidan iborat guruh, internetdagi mavjud elektron materiallaridan foydalanishga yunaltirish. O'qituvchilar o'z navbatida talabalarning tadqiqot

	olib borish ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarini yanada chuqquroq o'zlashtirish uchun Qo'shimcha materiallarini izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashlari lozim. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi. • darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; • tarqatma materiallar bo'yicha mahruzalar qismini o'zlashtirish; • maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; • talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish; • faol va muommoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari; • amaliy mashg'ulotlarni tayyorlash uchun musiqiy asarlarni mustaqil o'rganish; • dars mashg'ulotlarini ishlanmalarini tayyorlash; • ijro vaqtida texnik vositalaridan foydalanish; • tarqatma materiallaridan foydalanish; • musiqiy materiallarni o'rganish va taxlil qilish; • musiqiy asarlarni ijrosi ustida ishlash; • ijodiy topshiriqlarni bajarish; • musiqiy materiallarni metodik jixatdan qayta ishlash. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular 1. "Ko'rmadim". D.Zokirov. A.Navoiy g'azali. Bobur g'azali. 2. "Oromijon".Rost maqomidan.4 tom. 3. "Ey sarviravon . S.Kalonov musiqasi, Nodira g'azali 4. "Hayotxon" dostonidan "Na tilar mannan 5. "Otmagay tong", T.Jalilov musiqasi. 6. "Yakka bu farg'onada". Muqimiy g'azali 7. "Saraxbori dugoh" – taronalari 8. "Aylagach".A.Navoiy g'azali.X.To'xtasinov 9. "Xorazm savti suvoralaridan" "Kelsun" 10."Sallamno" N.Hasanov musiqasi. Vasfiy g'azali.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Mazkur fanning asosiy maqsadi - talabalarining xalq qo'shiqchiligiga xos o'quv malakalarini shakllantirish, ularga xalq qo'shiqlarini jamoa bo'lib va yakka holda kuylay olish va maqom guruhlarini tashkil qila olish psixologiyasi bo'yicha mukammal bilim berish va jamoaga rahbarlik qila olish xususiyatlarini

	singdirishdan iborat. Kursni maqsadidan kelib chiqqan holda, guruhli darslarda bir qator vazifalar amalga oshiriladi.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • laboratoriya; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirishi, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olishi, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritishi va joriy, oraliq, yakuniy nazorat shakllarida va mustaqil ta'lim uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi kerak.
6.	Asosiy adabiyotlar
	1. O.Matyokubov. «Moqomat». Toshkent. «Musiq» nashriyoti. 2004 yil.
	2. I.Rajabov. «Maqom asoslari». O'rta va oliy o'quv yurtlari uchun metodik qo'llanma. O'zbekiston madaniyat vazirligi madaniyat bo'limi. Toshkent. 1992 yil.
	3. D.Q.Qodirov. «An'anaviy qo'shiqchilik». Toshkent. «Iqtisod-moliya» nashriyoti. 2008 yil.
	4. Rahmonov N. Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent, 2009.
	5. Mirabdullaev M. An'anaviy xonandalik. O'quv qo'llanma. –Namangan: "Iste'dod ziyo-press" nashr, 2022.-204 b
	6. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/14/NamDU-ARM-73-Ananaviy_xonandalik.pdf
	7. Vocal Music and Contemporary Identities Taylor –Francis 2013
	Qo'shimcha adabiyotlar
	1. Mirabdullaev M. An'anaviy xonandalik. O'quv qo'llanma. –Namangan: "Iste'dod ziyo-press" nashr, 2022.-204 b https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/14/NamDU-ARM-73-Ananaviy_xonandalik.pdf
	2. https://st.ahrura.ltd/uuy6fa
	3. https://sk.sagepub.com/book/mono/teaching-primary-music/toc
	4. Tursunov A. An'anaviy xonandalik. O'quv qo'llanma. - Termiz: Surxon-nashr, 2020. - 196 b. file:///C:/Users/User/Downloads/1747645178.pdf

	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
	Fan/modul uchun ma`sul: O.Tilloxujayev – Qo‘qon Davlat Universiteti, “Musiqqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi
	Taqrizchilar: M.Djumabayeva- QDU “Musiqqa nazariyasi” kafedrasi dotsenti